

**QORAQALPOG‘ISTON  
RESPUBLIKASI  
BERUNIY TUMANI  
HOKIMINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
BERUNIY RAYONI  
HAKIMININ  
SHESHIMI**

2021 - yil 22 - noyabr

121-13-182-Q/21

Beruniy tuman hokimligi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021 yil 11 noyabrdagi  
“O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 noyabrdagi “Yurish, yugurish,  
mini-futbol, badminton, streetball va “Workout” sport turlarini yanada  
rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5282-sonli qarori haqida”gi  
148-13-0-Q/21-sonli qarorining ijrosini ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 noyabrdagi “Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, streetball va “Workout” sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5282-sonli qarori hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021 yil 11 noyabrdagi 148-13-0-Q/21-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida

**QAROR QILAMAN:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021 yil 11 noyabrdagi 148-13-0-Q/21-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi “Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6099-son Farmoniga muvofiq respublikada aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda - yurish, yugurish, mini-futbol, velosport, badminton, streetball, “Workout” (mahalla va ko'cha fitnessi) sportning ustuvor turlari (keyingi o'rinlarda - sportning ustuvor turlari) etib belgilanganligi;

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 25 dekabrdagi O'RQ-657-son Qonuni bilan tasdiqlangan 2021 yil uchun respublika byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlariga asosan Turizm va sport vazirligiga sportning ustuvor turlarini ommaviylashtirish va rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun 104 milliard so'm ajratilganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

b) quyidagilarni nazarda tutuvchi 2021-2022 yillarda yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, streetball va “Workout” sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi (keyingi o'rinlarda-dastur) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

sportning ustuvor turlarini boshqarish tizimini takomillashtirish;

aholi o'rtasida sportning ustuvor turlari ommaviylikini oshirish, iqtidorli yoshlarni saralash (selektsiya);

sportning ustuvor turlari bilan shug'ullanish uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni ommalashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy sport anjomlari bilan ta'minlash;

hududlarda sportning ustuvor turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirishga qaratilgan sport tadbirlarini tashkil etish;

sog'lom turmush tarzining eng muhim tarkibiy qismi sifatida jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish hamda bu jarayonda yuqori darajali axborotlashtirishni va multimedia mahsulotlaridan foydalanishni ta'minlash topshirilganligi;

v) quyidagi sport musobaqalari har yili o'tkaziladiganligi:

yurish va yugurish bo'yicha - “Tashkent Marathon”, “Samarkand Half Marathon” va “Zaamin Ultra” xalqaro marafonlari, “Sky Camp Bostanliq” triatlon va yoga marafonlari, “Barcha rekordlar bizniki!” (5 va 10 ming qadamga), turli masofalarga yugurish bo'yicha “Yangi rekordlar sari!”;

mini-futbol bo'yicha - “Yangi O'zbekiston yoshlarimiz”, “Sog'lom oila - Yangi O'zbekiston tayanchi” (oilaviy jamoalar o'rtasida) “Rahbar kubogi” (davlat organlari va tashkilotlari xodimlari o'rtasida);

badminton bo'yicha - “Bahor malikalari”, “Badminton ligasi” (umumiy o'rta va professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'rtasida), “Rahbar kubogi” (davlat va nodavlat tashkilotlarining xodimlari o'rtasida) va “Imkoniyatingizdan ko'prog'ini bajaring!” (aholining keng qatlamlari o'rtasida);

streetball va “Workout” bo'yicha - “Rekorddan - yangi rekordga!” va “Giyohvand moddalarga qarshi!” (ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalari o'rtasida), “Muhimi g'alaba qozonish emas, balki qatnashish!” (mahalla jamoalari o'rtasida), “Qishlog'ing uchun g'alaba qozon!” (qishloq jamoalari o'rtasida), “Sog'lom tanda - sog'lom fikr!” (davlat va nodavlat tashkilotlarining xodimlari o'rtasida);

Turizm va sport vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda tegishli sport federatsiya (assotsiatsiya)lari bilan birgalikda yuqoridagi sport musobaqalarini tizimli ravishda

tashkillashtirib borish, ularga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarni keng jalb qilish topshirilganligi;

g) 2022 yil 1 yanvardan boshlab sportning ustuvor turlari bo'yicha hududlarda iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va saralashning (selektsiya) 3 bosqichli tizimi joriy etish;

birinchi bosqichda - sportchilar o'rtasida tuman (shahar) musobaqalari (tuman/shahar hokimi kubogi);

ikkinchi bosqichda - tuman (shahar) musobaqalari g'oliblari o'rtasida viloyat musobaqalari (Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari kubogi);

uchinchi bosqichda - viloyat musobaqalari g'oliblari o'rtasida respublika musobaqalari;

Turizm va sport vazirligi, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi, O'zbekiston engil atletika federatsiyasi, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi, O'zbekiston badminton federatsiyasi, O'zbekiston basketbol federatsiyasi rahbarlariga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va saralash (selektsiya)ning 3 bosqichli tizimini tegishli hududlarda to'liq joriy qilish va musobaqalar natijalari asosida sport-ta'lim muassasalarini iqtidorli sportchilar bilan to'ldirib borish yuzasidan shaxsan mas'ul etib belgilash topshirilganligi;

d) belgilansinki, mazkur qaror bilan belgilangan sport musobaqalarini o'tkazish, g'olib va sovrindorlarni rag'batlantirish bilan bog'liq har yilgi xarajatlar Davlat byudjeti parametrlarida Turizm va sport vazirligi uchun ko'zda tutib boriladigan mablag'lar hisobidan qoplanishi. Bunda:

1) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

har yili sportning ustuvor turlari bo'yicha musobaqalarning muntazam ravishda o'tkazib borilishida aholining barcha qatlamlari xohishlariga qarab ularning faol ishtirokini ta'minlash choralarini ko'rish;

sportning ustuvor turlari bo'yicha musobaqalarni o'tkazish, g'oliblar va sovrindorlarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlarni nazarda tutish;

2) Turizm va sport vazirligi:

har yili mart oyi yakuniga qadar hududlar kesimida sportning ustuvor turlari bo'yicha musobaqalarni o'tkazish vaqti, joyi va manzillari, trenerlar, hakamlar va boshqa

batafsil ma'lumotlarni [www.jtdss.uz](http://www.jtdss.uz) platformasida joylashtirib borish va ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib etilishini ta'minlash;

har yil yakuni bilan sportning ustuvor turlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etgan fuqarolarning eng yuqori natijalari va rekord o'rnatganlar to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlarni platformada joylashtirib borish amaliyotini yo'lga qo'yish;

e) Moliya vazirligi (T.Ishmetov) "Sog'lom turmush tarzi" platformasi orqali amalga oshiriladigan to'lovlarni 2022 yil uchun Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutilishini hamda 2022 yil 1 yanvardan boshlab Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ularni to'liq hajmda to'lab berilishini ta'minlash;

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Turizm va sport vazirligi bilan birgalikda aholi o'rtasida yurish va yugurishga qiziqish tobora ortib borilayotganligini, sog'lom turmush tarzini olib borish fuqarolarning kundalik hayotiga faol aylanayotganligini inobatga olib, 2022 yil 1 yanvarga qadar "Sog'lom turmush tarzi" platformasini takomillashtirish, shu jumladan, axborot dasturida fuqarolar tomonidan belgilangan masofani haqiqatda bosib o'tganligini tasdiqlovchi mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish topshirilganligi;

o) 2021–2025 yillarda hududlarda badminton, stritbol va "Workout" sport turlari uchun 1 164 ta sport maydonchalarini tashkil etish parametrlari (keyingi o'rinlarda - parametrlar) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi. Bunda:

1) Turizm va sport vazirligi Qurilish vazirligi, O'zbekiston badminton federatsiyasi, O'zbekiston basketbol federatsiyasi bilan birgalikda:

ikki oy muddatda sport maydonchalariga qo'yiladigan talablar asosida hamda hududlarning o'ziga xos xususiyatlari, aholining qiziqishi va xohish istaklari, aholi soni va infratuzilmani inobatga olgan holda, sport maydonchalarining namunaviy loyihalarini (keyingi o'rinlarda - namunaviy loyiha) ishlab chiqishi;

sport maydonchalarining aholi yashash joylariga qulay va xalqaro talablarga mos ravishda tashkil etilishi, sport maydonchalari qoplamasi tartan-sintetik qoplamadan bo'lishi, aholi barcha qatlamlarining yoshi va qiziqishlariga mos bo'lishiga e'tibor qaratishi;

2) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

sport maydonchalarini foydalanish xususiyatini yo'qotmagan holda va tegishli joylashuviga ko'ra mahalla fuqarolar yig'ini yoki uy-joy mulkdorlari shirkatlariga tekin foydalanish huquqi asosida berishi;

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi bilan birgalikda sport maydonchalaridan aholining samarali foydalanishini tashkil etish, o'rnatilgan uskunalarni saqlash va ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlarni nazarda tutishi;

bir oy muddatda tumanlar va shaharlar bo'yicha namunaviy loyiha asosida har bir mahallada badminton, streetball va "Workout" sport maydonchalarini tashkil etishni nazarda tutuvchi 2021-2025 yillarda amalga oshirilishi mo'ljallangan hududiy manzilli dasturlarni tasdiqlash hamda ushbu ishlarni davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etishga tashabbuskor mahalliy tadbirkorlik sub'ektlarini keng jalb etish choralarini ko'rishi;

j) belgilansinki, Davlat byudjetidan 2021 yildan boshlab dastur va parametrlar to'liq bajarilgunga qadar har yili 104 milliard so'mdan mablag'lar ajratishi.

Moliya vazirligi mazkur qarorga asosan joriy yilda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni va kelgusi yillarda amalga oshirilishi belgilangan vazifalar uchun zarur mablag'larni Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutishni ta'minlashi;

z) Turizm va sport vazirligining "Sport ob'ektlari infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha injiniring kompaniyasi" DUK Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan sport maydonchalarini qurish va jihozlash bo'yicha buyurtmachi etib belgilashi;

Bunda bosh loyiha va bosh pudrat tashkilotlari belgilangan tartibda tanlov (tender) savdolari orqali aniqlashi;

i) Sportning ustuvor turlari bo'yicha sport maydonchalarini tashkil etish va jihozlash uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha chetdan olib kiriladigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan maxsus sport anjomlari va jihozlari, inventar, qurilish materiallari va moddiy-texnika resurslari 2024 yil 1 sentabrga qadar bojxona bojidan ozod etishi;

y) mazkur qarorning ijrosi quyidagi tartibda amalga oshirishi:

Bosh vazir o'rinbosari A.A.Abduhakimov - mazkur qaror ijrosini sifatli, to'liq va o'z vaqtida ta'minlasin, belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan mas'ul vazirlik, idora va tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil qilishi hamda muvofiqlashtishi, har oyda ular rahbarlarining bajarilgan ishlar to'g'risidagi hisobotlarini qabul qilishi hamda aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishi;

Turizm va sport vazirligi - dasturni ijro etish yuzasidan barcha zarur choralar ko'rilishini ta'minlashi, mazkur qarorda belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishda mas'ul tashkilotlarga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatishi hamda uning ijrosi bo'yicha har oyda Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borishi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari - sport maydonchalarini tashkil etish parametrlarini o'z vaqtida, sifatli va to'liq bajarishni ta'minlash yuzasidan barcha choralarni ko'rishi;

O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori A.K. Ko'chimov hamda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi A.D. Xadjaev - mazkur qarorning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini yoritishga oid brifinglar, tematik teleko'rsatuvlar tashkil etishi;

k) Turizm va sport vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritishi;

l) Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib turizm va sport vazirining tegishli o'rinbosarlari, sport federatsiya (assotsiatsiya)lari rahbarlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilanganligi;

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.A. Abduxakimov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov zimmasiga yuklanganligi;

amalgaga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan har yili 1 yanvargacha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berib borish topshirilganligi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021 yil 11 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 noyabrdagi "Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, streetball va "Workout" sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5282-sonli qarori haqida"gi 148-13-0-Q/21-sonli qarori bilan 2021-2022 yillarda yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, streetball va "Workout" sport turlarini yanada rivojlantirish choratadbirlari dasturi 1-ilovaga muvofiq;

2021-2025 yillarda shahar va tumanlarda badminton, streetball va "Workout" sport turlari uchun sport maydonchalarini tashkil etish parametrlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

3. Tumanda 2021-2022 yillarda yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, streetball va "Workout" sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining o'rinbosari (D.Abdullayev), Turizm va sport bo'limi (E.Dosbayev)ga:

har yili mart oyi yakuniga qadar hududlar kesimida sportning ustuvor turlari

bo'yicha musobaqalarni o'tkazish vaqti, joyi va manzillari, trenerlar, hakamlar va boshqa batafsil ma'lumotlarni [www.jtdss.uz](http://www.jtdss.uz) platformasida joylashtirib borish va ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib etilishini ta'minlash;

har yil yakuni bilan sportning ustuvor turlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etgan fuqarolarning eng yuqori natijalari va rekord o'rnatganlar to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlarni platformada joylashtirib borish amaliyotini yo'lga qo'yish;

dasturni ijro etish yuzasidan barcha zarur choralar ko'rilishini ta'minlash, mazkur qarorda belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirishda mas'ul tashkilotlarga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish hamda uning ijrosi bo'yicha har oyda tuman hokimligiga ma'lumot kiritib borish;

har yili sportning ustuvor turlari bo'yicha musobaqalarning muntazam ravishda o'tkazib borilishida aholining barcha qatlamlari xohishlariga qarab ularning faol ishtirokini ta'minlash choralari ko'rish;

sportning ustuvor turlari bo'yicha musobaqalarni o'tkazish, g'oliblar va sovrindorlarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlarni nazarda tutish;

sport maydonchalarini foydalanish xususiyatini yo'qotmagan holda va tegishli joylashuviga ko'ra mahalla fuqarolar yig'ini yoki uy-joy mulkdorlari shirkatlariga tekin foydalanish huquqi asosida berish;

tuman mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi (M.Kurbanbayeva) bilan birgalikda sport maydonchalaridan aholining samarali foydalanishini tashkil etish, o'rnatilgan uskunalarni saqlash va ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlarni nazarda tutish;

xususiy sheriklik asosida tashkil etishga tashabbuskor mahalliy tadbirkorlik subektlarini keng jalb etish choralari ko'rish;

sport maydonchalarini tashkil etish parametrlarini o'z vaqtida, sifatli va to'liq bajarishni ta'minlash yuzasidan barcha choralarni ko'rish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimligining Axborot xizmati (A.Urazova)ga mazkur qarorning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini yoritishga oid brifinglar, tematik teleko'rsatuvlar tashkil etish choralari ko'rsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash tuman hokimining o'rinbosari D.Abdullayev zimmasiga yuklatilsin.

**Beruniy tumani hokimi**



**A.Saparbayev**



Беруний туман ҳокимининг  
2021 йил 22 ноябрдаги  
121-13-182-Q/21-сон қарорига  
1-илова

**Beriniy tumanida 2021-2022 yillarda yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va «Workout» sport turlarini yanada rivojlantirish bo'yisha chora-tadbirlari dasturi**

№	Tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
<b>I. Aholi o'rtasida yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va «Workout» sport turlarining ommaviyligini oshirish, iqtidorli yoshlarni saralash (seleksiya)</b>					
1.	Aholi o'rtasida yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout" sport turlarining ommaviyligini oshirish, yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan keng qamrab olish.	1. Tizimida ochiq sport inshootlari (stadion, futbol va boshqa sport maydonlari) mavjud bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan aholining barcha qatlamlari uchun jismoniy tarbiya (yugurish, yurish va badantarbiya) bilan bepul shug'ullanish uchun sharoit yaratish. 2. Mavjud madaniyat va istirohat bog'larida aholi jismoniy tarbiya bilan bepul shug'ullanishi uchun "skandinavcha yurish", yurish, yugurish va "Workoutga" sharoit yaratish. 3. Sport-ta'lim muassasalarida, ta'lim tashkilotlarining sport inshootlarida "ochiq eshiklar" kunlarini tashkil etish.	2021-2022 yillar davomida  2021-2022 yillar davomida  Har chorakda bir marta	Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimligi, Xalq ta'limi bo'limi, Turizm va sport bo'limi, tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
2.	Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout" sport turlarini rivojlantirish uchun zarur mablag'lar ajratish.	1. Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout" sport turlari uchun 2021 yilda sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari kalendar rejasida ajratilgan mablag'lar ulushini kelgusi yillarda oshirib borish. 2. Ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlash.	2022 yil 1 yanvardan boshlab har yili  2021-2022 yillar davomida	Davlat byudjeti va homiylik mablag'lari	Tuman hokimligi, Turizm va sport bo'limi, Moliya bo'limi

3.	Iqtidorli sportchilarni saralash (seleksiya) ishlarini tashkil etish va "ommaviylikdan professionallikka" o'tish tizimini joriy etish.	1. Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va «Workout» sport turlari bo'yicha sportchining bosqichma-bosqich tayyorgarlik tizimini quyidagi tartibda amalga oshirish: maktabgacha talim va umumtalim muassasalaridagi sport to'garaklari; bolalar-o'smirlar sport maktabi; yuqorida belgilangan har bir sport muassasasida tarbiyalangan sportchilardan milliy terma jamoalar tarkibiga nomzodlar etishtirib berish. 2. Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va «Workout» sport turlari bo'yicha boshlang'ich tayyorgarlikdan professional darajagacha bo'lgan bosqichlar uchun o'quv-usluviy dasturlarni ishlab chiqish hamda ularning joylarga etkazilishini taminlash.	2021-2022 yillar davomida  2021-2022 yillar davomida	Ijrochilar mablag'lari, sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining tasdiqlangan kalendar rejasida ajratilgan mablag'lar, homiylik mablag'lari	Tuman hokimligi, Turizm va sport bo'limi, Xalq ta'limi bo'limi, Maktabgacha talim bo'limi, tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
4.	Maktabgacha talim tashkilotlarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus talim, professional talim muassasalarida yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout" sport turlarini rivojlantirish.	1. Kichik yoshdan bolalarda sport bilan shug'ullanishga sog'lom, kuchli va tasirchan motivaciyani shakllantirish hamda ularning muayyan ko'rsatkichlari asosida qaysi sport bilan shug'ullanishini aniqlash, mustaqil rejalashtirish qobiliyatini rivojlantirish. 2. Talim muassasalarida quyidagi ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish: "Muassasa sporti" festivali; mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout" sport turlari bwyicha "Muassasa birinchiligi".	2022 yil 1 yanvardan boshlab har yili har yili dekabr  2022 yil fevral-mart	Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimligi, Turizm va sport bo'limi, Xalq ta'limi bo'limi, Maktabgacha talim bo'limi, tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
<b>II. Mini-futbol bilan shug'ullanish uchun shart-sharoitlar yaratish, uni ommalashtirish, ushbu yo'nalishda muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy sport anjomlari bilan taminlash</b>					
5.	Aholini, ayniqsa yoshlarni boshlang'ich va havaskor mini-futbol bilan shug'ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.	1. Tumanda (qishloq, mahalla) mini-futbol infratuzilmasini rivojlantirish va undan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish. 2. Mini-futbol bo'yicha tashkil etilgan sektsiyalar, trenerlar, mini-futbol o'ynash mumkin bo'lgan maydonlar haqidagi ma'lumotlarni aholiga mahalliy ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali etkazish.	2021 yil dekabr  2021-2022 yillar davomida	Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimligi, Turizm va sport bo'limi, tuman hokimligining Axborot xizmati

6.	Havaskor va professional mini-futbolni ommalashtirish bo'yicha sport musobaqalarini o'tkazish tizimini takomillashtirish.	Tumanning barcha hududlarida, ayniqsa chekka qishloqlarda yosh iqtidorli sportchilarni saralab olish maqsadida: 3. Oilaviy jamoalar o'rtasida "Sog'lom oila-Yangi O'zbekiston tayanchi" musobaqalarini o'tkazish: 4. Davlat organlari va tashkilotlari xodimlari o'rtasida "Rahbar kubogi" musobaqalarini o'tkazish:	Har yili Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining tasdiqlangan kalendar rejasi asosida Har yili fevral-mart aprel	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining tasdiqlangan kalendar mablag'lar doirasida Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi, Turizm va sport bo'limi, tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
<b>III. Yurish va yugurish bilan shug'ullanish uchun shart-sharoitlar yaratish, ushbu yo'nalishda muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy sport anjomlari bilan ta'minlash</b>					
7.	Joylarda yurish va yugurish bilan shug'ullanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.	1. Tumandagi mavjud engil atletika maydonlarini xatlovdan o'tkazish.	2021 yil dekabr		Tuman hokimligi, Turizm va sport bo'limi
8.	Tumanda piyoda va velosipedda yurish uchun "Salomatlik yo'laklari" tashkil etish va zamonaviy sport anjomlari bilan ta'minlash.	1. Zamonaviy loyihalar asosida "Salomatlik yo'laklari"ni tashkil etish:	2022 yil 1 iyuldan boshlab doimiy	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimligi, Turizm va sport bo'limi, Moliya bo'limi
9.	Hududlarda sport musobakalarini yuqori saviyada o'tkazish.	Sport musobaqalarini yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan: 1) aholining keng qatlami o'rtasida ommaviy ravishda 5 ming, 10 ming qadam, "Skandinavcha yurish" bo'yicha "Barcha rekordlar bizniki!" musobaqalarini (tuman hududida); 2) engil atletika marafonlarini; 3) turli masofalarga yugurish bo'yicha "Yangi rekordlar sari!" sport musobaqalarini o'tkazish (tuman hududida).	Har yili Har yili yanvar-dekabr Umumxalq bayramlari kunlarida Har yili oktyabr-noyabr	Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi, Turizm va sport bo'limi, tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
<b>IV. Badminton bilan shug'ullanish uchun shart-sharoitlar yaratish, ushbu yo'nalishda muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy sport anjomlari bilan ta'minlash</b>					
10.	Badminton bilan shug'ullanish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish.	1. Hududlardagi mavjud barcha ochiq va yopiq turdagi sport inshootlarini xatlovdan o'tkazish. 2. Madaniyat va istirohat bog'lari hududida, aholi yashash joylarida badminton sport turlari bo'yicha maydonchalarni tashkil etish.	Har yili dekabr Xatlov natijalariga asosan 2021-2022 yillar davomida	Ijrochilar mablag'lari va homiylik mablag'lari	Tuman hokimligi, Turizm va sport bo'limi
<b>V. Hududlarda sport turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirishga qaratilgan sport tadbirlarini tashkil etish</b>					

11.	Hududlarda badminton sport turi bo'yicha sport musobaqalarini yuqori saviyada o'tkazish.	Sport musobaqalarini yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan: 1) "Bahor malikalari" sport musobaqalarini; 2) har bir tumanda umumta'lim va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari o'rtasida "Badminton ligasi" musobaqalarini; 3) davlat organlari, tashkilotlari va nodavlat tashkilotlarning ishchi xodimlari o'rtasida "Rahbar kubogi" musobaqalarini; 4) aholining keng qatlamlari o'rtasida "Imkoniyatingizdan ko'prog'ini bajaring!" musobaqalarini o'tkazish .	Har yili  Har yili mart Har yili aprel  Har yili may 2021-2022 yillar davomida.	Ijrochilar mablag'lari va homiylik mablag'lari	Tuman hokimligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi, Turizm va sport bo'limi, Xalq ta'limi bo'limi, tegishli korxon va tashkilotlar rahbarlari
12.	Stritbol va "Workout" bilan shug'illanish uchun shart-sharoitlar yaratish.	Mahallalardagi mavjud foydalanilmay turgan er maydonlarida belgilangan tartibda stritbol va "Workout" maydonchalarini barpo etish.	2021-2022 yillar davomida	Davlat byudjeti mablag'lari	Tuman hokimligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi, Turizm va sport bo'limi, Moliya bo'limi
13.	Aholi ayniqsa yoshlar orasida stritbol va "Workout" bilan shug'illanishni ommalashtirish.	1. Umumta'lim professional ta'lim muassasalarida stritbol klublari faoliyatini yo'lga qo'yish. 2. Mahalla qishloq, korxon tashkilotlarning stritbol va "Workout" bo'yicha jamoalarni tashkil etish.	2022 yil mart 2021-2022 yillar davomida	Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi, Turizm va sport bo'limi, Xalq ta'limi bo'limi
<b>VII. Hududlarda sport turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirishga qaratilgan sport tadbirlarini tashkil etish</b>					
14.	Aholining keng qatlamlari o'rtasida yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout" bo'yicha sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya, ommaviy sport ishlarini tashkil etish, kompleks sport musobaqalarini o'tkazish.	1. Yozgi ta'til davrida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida "Yozgi ta'tilni sport bilan o'tkazamiz!" shiori ostida musobaqa o'tkazish. 2. Oilaviy sport jamoalari o'rtasida "Otam, onam va men sog'lom oilamiz" shiori ostida sport musobaqalarini o'tkazish. 3. Bolalar-o'smirlar sport maktabi o'quvchilari o'rtasida "Yosh chempionlar" musobaqasini o'tkazish.	Har yili iyun-avgust Har yili dekabr, aprel-may 2021-2022 yillar davomida	Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi, Turizm va sport bo'limi, Xalq ta'limi bo'limi
<b>VIII. Sog'lom turmush tarzining eng muhim tarkibiy qismi sifatida jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish hamda bu jarayonda yuqori darajali axborotlashtirishni va multimedia mahsulotlaridan foydalanishni ta'minlash</b>					

15.	Internet orqali jismoniy tarbiya va sportni keng targ'ib qilish choralarini ko'rish.	1. Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout"ni keng targ'ib etish maqsadida Internet orqali turkum maqolalar e'lon qilish. 2. Sportda erishayotgan yorqin talabalari orqali Vatanimiz dovrug'ini ko'tarib kelayotgan sportchi xamda sport faxriylari (trenerlar)ning ibratli hayot yo'lini yoshlarga namuna qilib ko'rsatishga qaratilgan roliklar tayyorlash va ularni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish.	2021-2022 yillar davomida	Ijrochilar va homiylik mablag'lari	Tuman hokimligi, Turizm va sport bo'limi, tuman hokimligining Axborot xizmati
16.	Aholining keng qatlamlari, ayniqsa yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.	1. Aholining turli qatlamlari o'rtasida "Shaxsiy gigienaning sog'liq uchun ahamiyati", "Sog'lom bo'lishni o'rganing!", "O'smirlarda giyohvandlik", "Sigareta ichida nima bor?", "Alkogol bu zamonaviy narkotik", "Otaonalar ichishadi bolalar azob chekishadi", "Asabiylashish va sog'lom turmush tarzi", "Sog'lom ovqatlanish alifbosi" mavzularida tibbiyot xodimlari tomonidan ma'ruzalar tashkil etish. 2. Taniqli sportchilar ishtirokida yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout" bo'yicha ijtimoiy reklama roliklarini tayyorlash va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish.	2021-2022 yillar davomida	Ijrochilar va homiylik mablag'lari	Tuman hokimligi, Turizm va sport bo'limi, tuman hokimligining Axborot xizmati